

“KITOBDAN YAXSHIROQ DO‘ST YO‘Q JAHONDA”

Viloyatimizdagi tuman va shaharlarda bo‘lgani kabi Qo‘sh tepa tumanidagi ta‘lim muassasalarida ham arzonlashtirilgan narxlarda kitob savdo yarmarkalari tashkil etildi. Shu munosabat bilan tuman hokimligi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Qo‘sh tepa tuman bo‘linmasi, Xalq ta‘limi bo‘limi, tuman Axborot kutubxona markazi va boshqa hamkor tashkilotlar ishtirokida “Oilamiz bilan kitob o‘qiyamiz” aksiyasi bo‘lib o‘tdi.



Ushbu aksiya doirasida tashkil etilgan yarmarkada ota-onalar, mahalla faollari, uyushmagan yoshlar, maktab pedagog xodimlari hamda o'quvchi yoshlar faol ishtirok etdilar.



19-48 umumiy o'rta ta'lim maktablarida bo'lganimizda yarmarkaga tashrif buyurgan ota-onalar farzandlari bilan birgalikda savdo rastalaridagi kitoblar bilan tanishib, o'zlari tanlagan kitoblarini xarid qilayotganligining guvohi bo'ldik. Ular ushbu aksiya tashkilotchilariga va arzonlashtirilgan narxlarda o'quvchilarga kitob yetkazib bergan "Farg'ona kitob olami" MCHJ xodimlariga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.



Bugungi tadbirdagi kitobxon bolakaylarimiz va kitobxon ota-onalarimizni ko'rib Abdurahmon Jomiyning:

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,

G'amxo'ring bo'lgay u g'amli zamonda.

U bilan qol tanho, hych bo'lmas ozor,

Joningga yuz rohat beradi takror. - Deya qalamga olgan satrlari yodimga tushdi.

N.Otabekov,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi rahbari.

2021-01-26 14:06:00